SELUNGUR G‘OR MAKONINING MAKROQUROLLARI

© 2026. Omonov Anvar
Fan va texnologiyalar universiteti
0009-0004-0247-3570

Kalit so‘zlar: Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, ilk paleolit, xomo erektus, ashel, tosh industriya, toshlarni chaqmoqlash texnikasi, retush, uchirindi, o‘zak, bifas, kliver, chopper, chopping.

Mazkur maqola Markaziy Osiyoning g‘or tipidagi ilk paleolit davriga oid yodgorligi - Selungur g‘or makoni yirik hajmli tosh qurollarining texnik-tipologik tavsifi va tahliliga bag‘ishlangan. Yodgorlik 1955-yilda A.P. Okladnikov tomonidan ochilgan, so‘ngra A. Poshka va M.R. Qosimovlar tomonidan qisman o‘rganilgan. Biroq Selungur makonining madaniy-davriy xususiyatlari atrofidagi bahsli munozaralar XX asrning 80-yillarida yodgorlikda O‘zR FA Arxeologiya institutining O‘.I. Islomov rahbarligidagi tadqiqotlaridan keyin boshlandi. Selungurning madaniy qatlamlaridan 1500 ga yaqin tosh buyum bilan birga paleoflora, paleofauna va paleoantropologik materiallar topilgan. Biroq yodgorlik yaxshi o‘rganilganligiga qaramasdan tosh industriyasining ilmiy talqini borasida turli fikrlilik yuzaga keldi. Xorijlik tadqiqotchilardan V.A. Ranov, L.B. Vishnyatskiy va A.P. Derevyanko-lar Selungurning tosh industriyasida qo‘l cho‘qmorlari (bifaslar) mavjudligini inkor etib, ushbu tosh qurollarning tipologik jihatdan noto‘g‘ri talqin qilinganligini, N.K. Anisyutkin esa, yodgorlik tosh buyumlari orasida bifas va kliverlarning uchrashining va ushbu qurollar tosh industriyada muhim o‘rin tutganligini maqolalarda qayd etgan. Yodgorlikni o‘rgangan mutaxassislardan O‘.I. Islomov va K.A. Kraxmal to‘plamda belgilovchi qurollar (bifas va kliverlar) mavjudligini hammualliflikda nashr etilgan risola va bir qator ilmiy maqolalarda qayd etib o‘tishgan.
2022-2023-yillar mobaynida Selungur g‘or makoni tosh buyumlari zamonaviy morfologik, arxeometrik, texnik-tipologik va eksperimental usullar yordamida tadqiq qilindi va shu asosda industriyaning obyektiv tip-varaqasi ishlab chiqildi. Tosh buyumlarning tipologiyasi, ishlanish texnologiyasi o‘rganilib, qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida yodgorlikning tosh industriyasi Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo ilk paleolit davri madaniyatlariga o‘xshashligi, genezesi va madaniy jihatdan ushbu hududlarning ilk paleolit davri madaniyatlari bilan bog‘liqligi aniqlandi.

МАКРООРУДИЯ ИЗ ПЕЩЕРНОЙ СТОЯНКИ СЕЛЬУНГУР

© 2026. Омонов Анвар
Университет науки и технологий

Ключевые слова: Восточная и Юго-Восточная Азия, ранний палеолит, хомо эректус, ашель, каменная индустрия, расщепления камня, ретушь, отщеп, нуклеус, бифас, кливер, чоппер, чоппинг.

Данная статья посвящена технико-типологической характеристике и анализу макроорудий раннепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур в Центральной Азии. Памятник был открыт в 1955 году А.П. Окладниковым, позже частично изучался А. Пошкой и М.Р. Касымовым. Активные дискуссии вокруг культурно-хронологической принадлежности Сельунгура начались в 1980 годах после масштабных исследований Института археологии АН РУз под руководством У.И. Исламова. Несмотря на обнаружение богатого комплекса каменных изделий (около 1500 единиц), а также палеоантропологических и палеонтологических находок, научная интерпретация индустрии оставалась спорной. В то время как В.А. Ранов, Л.Б. Вишняцкий и А.П. Деревянко отрицали, наличие в индустрии стоянки ручных рубил (бифасов).
Н.К. Анисюткин и У.И. Исламов обосновывали их присутствие как ключевых элементов коллекции. В 2022–2023 годах каменный инвентарь Сельунгура был подвергнут комплексному анализу с применением современных морфологических, археометрических, технико-типологических и экспериментальных методов.

В результате исследования был разработан объективный типологический перечень (тип-лист), подтвердивший генетическую близость и сходство индустрии Сельунгура с культурами раннего палеолита Восточной и Юго-Восточной Азии.

Kirish. Markaziy Osiyoda stratigrafiyalashgan, g‘or tipidagi ilk paleolit davriga oid yagona yodgorlik Selungur g‘or makonidir. Yodgorlik Farg‘ona shahridan 100 km janubiy-g‘arbda, So‘x daryosi vodiysida, Xaydarkon qishlog‘ining g‘arbiy chekkasida (hozirgi O‘sh viloyati) joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1890 metrni tashkil etadi. Selungur g‘or makoni 1955-yilda A.P. Okladnikov tomonidan ochib o‘rganilgan, 1964-yilda M.R. Qosimov g‘orda qisqa tadqiqotlar olib borgan (Kasimov, 1966: 28-35). A.P. Okladnikov va M.R. Qosimovlar tadqiqotlari oralig‘ida yodgorlik A. Poshka tomonidan ham o‘rganilgan (Poshka, 1960: 38). Ammo Selungurni tizimli o‘rganish ishlari 1980-yilda O‘.I. Islomov tomonidan boshlangan. O‘.I. Islomov rahbarligida 1980-1990-yillar oralig‘ida yodgorlikda kompleks tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur davrda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qator ilmiy maqolalar va risolalarda o‘z aksini topgan (Islamov, Omanjulov, 1984: 18-27; Islamov, Kraxmal, 1992: 143-163; Islamov, Kraxmal, 1995: 3-220; Islamov, 1990: 115-126).

Yodgorlikni o‘rgangan tadqiqotchilar tomonidan g‘orda uncha katta bo‘lmagan 9 ta qazishmalar o‘tkazilib, 5 ta madaniy qatlam aniqlangan va bu yerdagi 3-qatlam esa yana 3 ta mikroqatlamchaga ajratilgan. Ushbu qatlamlarning qalinligi 20-40 sm dan 0,3-1 m oralig‘ida bo‘lib, madaniy yotqiziqlarning chuqurligi 8,5 m ga yetgan. Qazishmalar natijasida Selungur g‘or makonidan 1500 ga yaqin tosh buyum, shuningdek paleoflora, paleofauna va paleoantropologik materiallar qo‘lga kiritilgan (Islamov, Kraxmal, 1995: 3-15). Tosh qurollar orasida chopperlar, qo‘pol qirg‘ichlar, o‘yib-kertib ishlangan, tishsimon qirrali qurollar, tosh boltalar (kliverlar), tig‘lar, protolimaslar (ikki tig‘li qurol) va bifaslar topilgan.

Usullar. Maqolada Selungur g‘or makoni tosh ashyolarni tadqiq qilishda zamonaviy arxeometrik, morfologik, texnik-tipologik, eksperimental hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.


Tadqiqotlar. Selungur g‘or makonining tosh industriyasi birlamchi va ikkilamchi ishlangan tosh ashyolardan iborat. Ibtidoiy ustalar tomonidan turli xil tosh xomashyosi (slanets, chaqmoqlashgan ohaktosh, yashma va h.k.) makonga keltirilib, toshlarga birlamchi ishlov berish (toshlarni chaqmoqlash, sindirish) natijasida o‘zak (nukleus) va yo‘nilg‘ilar (uchirindi) olingan. Ikkilamchi ishlov berish natijasida esa ulardan qurollar yasalgan.

Selungur tosh ashyolari to‘plamida yirik hajmli tosh qurollar 41 tani tashkil etadi. Yirik hajmli tosh qurollar qatoriga bifaslar (12 ta), kliverlar (19 ta), piklar (2 ta), chopperlar (5 ta) va choppinglar (3 ta) kiritildi (Omonov, 2023: 66).

Bifas – qadimgi odamlarning toshdan yasalgan ilk mehnat qurollaridan biri hisoblanadi, bifasning eng qadimgilari bundan 1 mln - 750 ming yil avval Afrikada paydo bo‘lgan. Bifasial qurollarning paydo bo‘lishi ashel madaniyatining shakllanishi bilan bog‘liq. Biroq Selungur g‘or makoni bifaslari shakli va ishlanish texnologiyasi Afrika va G‘arb paleolitining sinxron industriyalaridan keskin farq qiladi. Quyida bu xususda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Selungur g‘or makoni tosh industriyasida bifaslar jami 12 dona (Omonov, 2023: 66-68). Bifaslardan biri kulrangli slanetsdan ishlangan, hajmi 104×48×27 mm. Mazkur bifas uzunchoq proporsiyali uchirindidan bifasial yo‘nishlar va yupqa retushlashlar yordamida shakllantirilgan. Shakli atipik uchburchaksimon, uchi bifaslar uchun noodatiy tarzda uchlik qilib ishlangan. Ko‘ndalang kesmada ikki taraflama bo‘rtib chiqqan. Ish qirralari chap lateralida S-simon, o‘ng lateralda esa deyarli to‘g‘ri chiziqsimon (1-rasm, 1).

To‘plamning ikkinchi bifasi kulrangli yassi kremniylashgan ohaktosh galkadan, bifasial yo‘nishlar yordamida ishlangan, hajmi 70×57 ×27 mm. Shakli atipik, yuraksimon. Bifasning distal uchi sinib qolganidan so‘ng qayta



1-rasm. Bifaslar
Рис. 1. Бифасы
Fig. 1. Bifaces

shakllantirishga harakat qilingan. Ish qirralari zigzagsimon, buyumning har ikkala yuzasida ham xomashyoning galkali qobig‘i qoldiqlarini saqlab qolgan (1-rasm, 2).


To‘plamda bir dona gardishsimon bifas mavjud. Ushbu bifas yashmadan ishlangan, hajmi 72×75×35 mm. Buyum bir taraflama bo‘rtib chiqqan, qirralari zigzagsimon. Avvalgi ishlanish bosqichlarida ushbu bifas nukleus bo‘lgan (1-rasm, 3).

Kolleksiyaning navbatdagi bifasi kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan, shakli noto‘g‘ri to‘rtburchaksimon bo‘lib, hajmi 55×40×15 mm. Buyum avvalgi ishlanish bosqichlarida ehtimol, nukleus bo‘lgan, so‘ngra bifasial yo‘nishlar yordamida qurolga aylantirilgan. Qirralari zigzagsimon, ko‘ndalang kesmada yassi, bifasni shakllantirgan periferik mayda yo‘nilg‘i izlari buyumning o‘ziga nisbatan kamroq patinizatsiyalashgan (1-rasm, 4).

To‘plamning navbatdagi bifasi kulrang slanetsdan ishlangan, hajmi 69×45×20 mm. Bifasning uchi sinib qolgan va u bifasial yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan. Qirralari zigzagsimon, ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqqan. Buyumning shakli atipik bodomsimon (1-rasm, 5).

Kolleksiyada bifaslarning ehtimol, qo‘llanish jarayonida sinib qolgan uchlari ham uchraydi. Ma’lumki, bifaslarning uch qismi qattiq va qayishqoq hayvon terilarini teshishda ko‘p hollarda sinib qolgan. Ana shunday bifas uchlaridan biri yashma galkasidan ishlangan, hajmi 45×50×25 mm. Ushbu qurol bifasial yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan, qirralari zigzagsimon. Bifasning har ikkala yuzasida ham xomashyoning galkali qobig‘ini saqlab qolgan (1-rasm, 6). Aytish mumkinki, ushbu qurolni tayyorlashda yashmaning yassi shaklli galkasi tanlab olingan. Mazkur toifadagi navbatdagi bifas yashmadan ishlangan, hajmi 45×40×17 mm bo‘lib, bifasial yo‘nishlar va qo‘shimcha retushlashlar yordamida shakllantirilgan. Qirralaridan biri to‘g‘ri chiziqsimon, ikkinchisi esa zigzagsimon, ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqqan (Omonov 2023: 67).

Navbatdagi bifasning uchi ham yashmadan ishlangan, hajmi 49×42×20 mm. Ushbu qurol bifasial yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan, ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqqan, qirralari zigzagsimon. Mazkur toifadagi navbatdagi bifas yashmadan ishlangan bo‘lib, hajmi 84×40×20 mm. U qisman bifasial yo‘-



2-rasm. Kliverlar
Рис. 2. Кливеры
Figure 2. Cleavers

nishlar yordamida ishlov berilgan bifas uch qismining fragmenti hisoblanadi.

Selungur g‘or makonining yirik hajmli tosh qurollari orasida kliverlar ham bor. Kliverlar jami 19 ta bo‘lib, to‘plamdagi makroqurollarning deyarli yarmini tashkil qiladi.

To‘plamdagi kliverlardan biri galkaning sandonda sindirib olingan bo‘lagidan ishlangan bo‘lib, hajmi 80×60×25 mm (Omonov, 2023: 68; Sayfullayev, Omonov, 2023: 5). Buyumning o‘ng laterali zinasimon retushlash yordamida, chap laterali esa sindirib shakllantirilgan. Ko‘ndalang proksimali yirik yupqa yo‘nish yordamida ishlangan va pastki ko‘ndalang qismiga nisbatan kengroq. Uning ish qirrasi turli hajmdagi bifasial yo‘nishlar yordamida biroz bo‘rtirilgan. Retushlangan qirraga to‘g‘ri burchak ostida joylashgan yuqori qismi ham zinasimon retushlarga ega va dejete tipidagi qirg‘ichlarni eslatadi. Kliverning dorsali radial yo‘nishlar, ventral qismi esa galkali qobiq bilan qoplangan, ko‘ndalang kesmada trapetsiya shakliga ega (2-rasm, 1).

Kolleksiyaning navbatdagi kliveri yashmasimon jinsli galka bo‘lagidan ishlangan, ko‘ndalang kesmada trapetsiyasimon, ikki taraflama yo‘nilg‘i negativlarini va galkali qobig‘ini qisman saqlab qolgan, hajmi 90×55×20 mm. Kliverning yon tomonlari retushlanmagan, qirralaridan biri yo‘nishlar, ikkinchisi siniqlar yordamida shakllantirilgan. Fasetkalashtirilgan ko‘ndalang qismi retushlash yordamida yupqalashtirilgan va biroz egik shaklda. Qurolning pastki qismi bo‘rtib chiqqan, zinasimon retushlar yordamida ishlov berilgan va qirg‘ichsimon ish qirra hosil qilgan. Tanovor sifatida nukleussimon buyumdan foydalanilgan va uning bir tarafi yo‘nilg‘i negativlariga ega, ikkinchi yuzasi esa tabiiy. Mazkur kliverning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qurolning ish qirrasi retushlardan tashqari, ikkita yupqa yo‘nilg‘i negativlariga ham ega (2-rasm, 2).

To‘plamning navbatdagi kliveri yashma galkasidan ishlangan bo‘lib, nukleussimon bo‘lakdan shakllantirilgan, hajmi 104×74×30 mm. Uning yuzalaridan biri ikki qarama-qarshi zarb maydonli nukleusni eslatadi, orqa tarafi to‘liq galkali qobiq bilan qoplangan, ammo buyumning ko‘ndalang distali o‘tkir qirra hosil qiladi. Ko‘ndalang kesmada buyum to‘g‘ri burchaksimon shaklda (3-rasm, 1).

Navbatdagi kliver kremniylashgan ohaktoshli birlamchi uchirindi sinig‘idan ishlangan, hajmi 102×54×22 mm. Buyumning dorsali galkali qobiq bilan qoplangan. Kliverning o‘ng laterali intensiv va turli fasetkali retushlar yordamida ishlov berilgan, chap laterali esa galka qobiq bilan qoplangan. Qurolning ish qirrasi ventral tarafdan retushlangan va ko‘ndalang kesmada deyarli to‘g‘ri burchaksimon (3-rasm, 2).


Kolleksiyadagi kliverlardan biri yupqa yashmali galkadan ishlangan uzunchoq qurol bo‘lib, hajmi 108×69×32 mm. Kliverning uzun qirralari qisman retushlangan. Qurolning ko‘ndalang qirrasi biroz qiyalashgan va ikki taraflama yupqa yo‘nishlar yordamida ishlov beril-

gan. Buyumning proksimali tumshuqsimon qurollarni eslatadi. Uning ko‘ndalang ish qirrasi ikki taraflama ishlov berilgan va choppinglardan ish qirrasining biroz egriligi bilan farq qiladi. Ko‘ndalang kesmada buyum rombsimon shaklda (3-rasm, 3).

To‘plamning navbatdagi kliveri yashmali galka bo‘lagidan ishlangan, hajmi 112×70×33 mm. Uning chap laterali ventral, o‘ng laterali esa dorsal tarafdan yupqa yo‘nishlar va mayda retushlar yordamida ishlov berilgan hamda to‘g‘ri chiziqsimon. Buyumning proksimal qismi tik yo‘nishlar va kichik retushlar yordamida ishlov berilgan va piksimon qurollarni eslatadi. Qurolning ish qirrasi bifasial botiq yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan, shakli biroz tishsimon ko‘rinishga ega, dorsali asosan galka qobig‘ini saqlab qolgan, ventrali esa deflyatsiyaga uchragan yo‘nilg‘i izlariga ega. Ko‘ndalang kesmada rombsimon (3-rasm, 4).

To‘plamning yana bir kliveri kulrang alevrolitdan ishlangan uzunchoq shaklli, hajmi 80×45×29 mm. Kliverning o‘ng laterali galkali qobiq bilan qoplangan, chap qirrasi esa ikkita avvalgi yo‘nilg‘i negativlariga ega bo‘lgan o‘zakning qirrasidan hamda uchirindining yuqori qismida ikkita klekton tipidagi ankosh yordamida ishlov berilgan. Yirik klekton ankoshi yordamida shakllantirilgan ko‘ndalang qirrasi keng, ko‘ndalang kesmada to‘g‘ri burchaksimon. Ushbu toifadagi keyingi buyum qora rangli effuziv jinsli galkadan ishlangan yirik uchirindidan tayyorlangan, hajmi 97×48 ×29 mm. Uchirindining uzun o‘qi uning chaqmoqlanish o‘qiga mos emas, kliverning har ikkala laterali ham yirik fasetkali retushlar yordamida ishlangan va ikkiyoqlama qirg‘ichning tik qirrasini eslatadi.

Yana bir qurol yupqa uchirindidan ishlangan uzunchoq “kliver” va uni levallua qatoriga kiritish mumkin, hajmi 77×53×16 mm. Uning bir-biriga parallel joylashgan uzun laterallari yarim tik retushlarning yirik fasetkalari yordamida ishlov berilgan. To‘plamdagi kliverlardan biri yashmasimon ikkiga bo‘lingan galkadan ishlangan yirik va uzunchoq qurol bo‘lib, hajmi 143×76×38 mm. Buyumning dorsali galka



3-rasm. Kliverlar
Рис. 3. Кливеры
Figure 3. Cleavers

qobig‘i bilan qoplangan, ventral qismi esa noaniq chaqmoqlanish yuzasidan iborat. Uning o‘ng laterali ikki taraflama yirik yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan, chap laterali esa faqat bir taraflama ishlangan. Ko‘ndalang qirrasi bo‘rtik, ventral tarafdan retushlangan izlarga ega. Buyumning pastki qismi ilgari singan, ko‘ndalang kesmada parallelga yaqin.

Navbatdagi kliver yashma uchirindidan ishlangan, hajmi 86×63×22 mm. Uchirindi sandonda chaqmoqlangan va ventral yuzasi yorqin emas. Qurolning ish qirrasi uchirindining keng tomonida dorsal tarafga yo‘naltirilgan bitta yirik qiya yo‘nish, so‘ngra yupqa retushlash yordamida shakllantirilgan. To‘plamning navbatdagi kliveri kulrangli kremniylashgan ohaktosh uchirindidan ishlangan, hajmi 68×37×20 mm. Qurolning ish qirrasi yo‘nilg‘ining ko‘n-

dalang proksimalida dorsalga yo‘nalgan yarim tik yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan va ventral tarafdan tagyo‘nishlar amalga oshirilgan. Tanovorning har ikkala laterallari ham dorsalga yo‘nalgan tik yo‘nishlar va retushlar yordamida ishlov berilib, chap laterali tishsimon, o‘ng laterali esa bo‘rtik qirralarga aylantirilgan. Ish qirrasining ventral qismida ko‘ndalang tagyo‘nishlar amalga oshirilgan. To‘plamdagi kliverlardan yana biri yashmaning yirik uchirindisidan ishlangan, hajmi 81×53×20 mm. Ushbu uchirindining zarb maydonchasi keyinchalik (qurolga aylantirish jarayonida) dorsalga va ventralga yo‘naltirilgan yo‘nishlar va retushlar yordamida olib tashlangan. So‘ngra uchirindining har ikkala laterallaridan dorsalga yo‘naltirilgan yirik perpendikulyar yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan. Uning distal qismida perpendikulyar yo‘nalgan yo‘nilg‘i negativi uchirindining pastki uchini qiyalashgan ish qirraga aylantirgan va bu qirra qarama-qarshi tarafdan qo‘shimcha retushlanib, tekislangan. Kolleksiyaning keyingi kliveri ham yashma galkasidan chaqmoqlangan, yirik birlamchi uchirindidan ishlangan, hajmi 87×91 ×25 mm. Uchirindining biroz deflyatsiyaga uchragan dorsali to‘liq galka qobig‘i bilan qoplangan, zarb maydonchasi fasetkalashtirilgan. Qurolning ish qirrasi uchirindining keng ko‘ndalang distalida ventralga yo‘naltirilgan, yarim tik yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtib chiqqan va biroz tishsimon shaklda (Omonov, 2023: 72).

Selungur g‘or makonidan topilgan so‘nggi kliver yashmadan ishlangan, hajmi 87×53×18 mm. U tabiiy qobiqli, tekis va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan zarb maydonchali yirik uchirindidan ishlangan. Qurolning ish qirrasi yo‘nilg‘ining ko‘ndalang distalida qarama-qarshi yo‘nalishdagi kichik yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirraning shakli tishsimon, so‘ngra kichik va tik yo‘nishlar yordamida uchirindining har ikkala laterallariga ham ishlov berilgan. Kolleksiyada kliverlarning 2 ta fragmentlari ham aniqlangan.

Shuningdek Selungur tosh industriyasining yirik hajmli tosh qurollari orasida 2 ta piksimon qurol ham bor. Piksimon qurollarning ikkalasi ham yashma galka bo‘lagidan ishlangan. Qurollarning har ikkala yuzalarida sandonda sindirilganlik hamda yirik yo‘nilg‘i negativlari izlari saqlanib qolgan.

To‘plamda kam sonli galkali qurollar uchraydi. Chopperlar jami 5 ta. Mazkur tosh qurollarning aksariyati to‘q jigarrangli yashmasimon galkadan ishlangan, ish qirralari tishsimon, taraflaridan biri to‘liq galkali qobiq bilan qoplangan. To‘plamdagi qolgan 2 ta chopperdan biri qoldiq nukleusdan, ikkinchisi esa yirik birlamchi uchirindidan ishlangan (Omonov, 2023: 72-73).

Kolleksiyada choppinglar jami 3 ta. Ulardan biri yassi galka bo‘lagidan ishlangan va har ikkala yuzasida ham galka qobig‘ini saqlab qolgan. Qurolning taraflaridan biri yirik bifasial yo‘nishlar va retushlar yordamida ish qirraga aylantirilgan, shakli bo‘rtik. To‘plamning choppinglaridan yana biri yassi kremniylashgan ohaktosh galkadan ishlangan. Galkaning tomonlaridan biri bifasial yo‘nishlar va qo‘shimcha retushlashlar yordamida ish qirraga aylantirilgan, shakli tig‘simon. Kolleksiyaning so‘nggi choppingi yashmadan ishlangan, qoldiq nukleusdan shakllantirilgan. Nukleus “qirradan” chaqmoqlangan bo‘lgan va buyumning har ikkala yuzalaridan o‘zakni sindirishdan qolgan yo‘nilg‘i izlarini saqlab qolgan, so‘ngra nukleusning tomonlaridan biri qo‘shimcha yo‘nishlar va retushlar yordamida choppingning ish qirrasiga aylantirilgan.

Shunday qilib, Selungur g‘or makonining tadqiq qilingan kolleksiyasida jami 41 ta yirik hajmli tosh qurollar aniqlandi. Yuqorida qayd etganimizdek, to‘plamda makroqurollarning deyarli barcha turlari uchraydi (1-jadval). Yirik hajmli tosh qurollar ko‘pincha sandonda sindirib olingan va kam hollarda yirik birlamchi uchirindilardan ishlangan (Sayfullayev, Omonov, 2023: 5).

Munozaralar. Madaniy jihatdan Selungur g‘ori materiallari janubiy ashel madaniyatiga kiritilgan, analogiya sifatida Old Osiyodagi Ubaydiya yodgorligi keltiriladi (Islamov, Kraxmal, 1992: 143-163; Islamov, Kraxmal,

1-jadval.

Selungur g‘or makoni makro hajmli tosh qurollarining tip-varaqasi (41 ta).

№	Tip	Soni	%
1	Bifaslar	12	29,3 %
2	Kliverlar	19	46,3 %
3	Piklar	2	4,9 %
4	Chopperlar	5	12,2 %
5	Choppinglar	3	7,3 %
	Jami:	**41**	**100%**

1995: 15-27). Selungurning madaniy qatlamlaridan olingan namunalarning ion-uran uslubi bo‘yicha absolyut sanasi 1,1-750 ming yilliklarni bergan. Shu jihatdan Selungur Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi yodgorlik, deb talqin qilingan. Biroq yodgorlik yaxshi o‘rganilganligiga qaramasdan uning madaniy-davriy xususiyatlari, xususan, tosh industriyaning ilmiy talqini borasida turli fikrlilik yuzaga keldi (Omonov, 2019: 112-114; Omonov, 2021: 78-79). Paleolitshunos olimlardan V.A. Ranov, L.B. Vishnyatskiy va A.P. Derevyanko Selungur g‘or makonining sanasi 300-200 ming yillardan qadimiy emasligi va yodgorlikning tosh industriyasida qo‘l cho‘qmorlari (bifaslar) mavjudligini inkor etib, ushbu tosh qurollarning tipologik jihatdan noto‘g‘ri talqin qilinganligini nashrlarda qayd etishgan (Ranov, Dodonov, 1994: 44-53; Vishnyatskiy, 1996: 107; Derevyanko, 2017: 399-415).

Xorijlik tadqiqotchilardan N.K. Anisyutkin esa, Selungur tosh buyumlari orasida bifas va kliverlarning borligi va ushbu qurollar tosh industriyada muhim o‘rin tutganligini, shuningdek yodgorlik 1,1-600 ming yillar bilan sanalangan Sharqiy Osiyo ilk paleolit davri texnokomplekslari bilan yaqinligini ta’kidlagan. N.K. Anisyutkinning mahalliy mutaxassislar bilan birga Rossiyada chop ettirgan “Selungur g‘or makoni kliverlari” nomli maqolasida yodgorlikning madaniy-davriy xususiyatlari atroflicha talqin qilingan (Anisyutkin i dr., 2000: 12-18). Yodgorlikni o‘rgangan mutaxassislardan U.I. Islomov va K.A. Kraxmal esa Selungur g‘or makonining ilk o‘rta pleystotsenga oidligi hamda to‘plamda belgilovchi qurollar (bifas va kliverlar) mavjudligini hammaulliflikda nashr etilgan risola va bir qator ilmiy maqolalarida qayd etishgan (Islamov, 1990: 115-126; Islamov, Kraxmal, 1995: 8-15).

2015-yilda Selungurda arxeologik tadqiqotlar Qirg‘iziston-Rossiya-Germaniya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan qayta jonlantirildi va Selungurning tosh industriyasi O‘rta Osiyo hududida mikok an’analari asosida rivojlangan o‘rta paleolitning bir varianti sifatida qaraldi (Krivoshapkin i dr., 2016: 94-99; Krivoshapkin i dr., 2017: 141-145).

Xullas, Selungur yodgorligi arxeologik materiallarining madaniy-davriy talqini borasida jahon adabiyotida turli fikrlilik vujudga keldi va bu yodgorlikning tosh buyumlarini zamonaviy standartlar asosida qaytadan, sinchiklab o‘rganishni taqozo qildi. Yuqorida qayd etganimizdek, O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi fondida saqlanayotgan Selungur g‘or makoni tosh buyumlari (yodgorlikdan o‘tgan XX asrning 80-90-yillar oralig‘ida qazib olingan artefaktlar) zamonaviy usullar yordamida tadqiq etildi, natijada yodgorlikning madaniy xosligi, analogiyasi va nisbiy xronologiyasi borasida yangi xulosalarga ega bo‘ldik.

Xulosa qilib aytganda, Selungur makonining tosh industriyasida kam sonli bo‘lsa-da yirik hajmli tosh qurollar mavjud bo‘lib, ular orasida bifaslar, kliverlar, piklar va galkali qurollar birgalikda uchraydi.

Bifaslarning shakllari atipik, bodomsimon, yuraksimon va uchburchak shakllarga ega, mazkur tosh qurollar yassi galkalardan bifasial yo‘nishlar yordamida qisman ishlov berilganligi bilan ajralib turadi. Ishlanishi qo‘pol va hech qachon ularning o‘rta qismlari yo‘nish yoki shox bolg‘a yordamida olib tashlanmagan. Bu

holat Selungur bifaslarini g‘arbiy paleolitning sinxron industriyalaridan farq qilishini ko‘rsatadi. Selungur g‘or makonining bifasial ishlov berilgan qurollari kam sonliligi va ishlanish texnikasiga ko‘ra Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning texnokomplekslariga o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi.

Selungur g‘or makonida bifaslar ishlab chiqarish nisbatan kam sonli bo‘lsada amalga oshirilgan va bu qadimgi aholining madaniy an’analari bilan bog‘liq ehtimol, negaki, g‘arbdagidek Selungur bifaslarining aksariyati pichoq sifatida ishlatilganligiga ishonish qiyin. Huddi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolit komplekslarida bo‘lgani singari yodgorlikning bifaslari chopquvchi qurollar vazifasini o‘tagan bo‘lishi mumkin. Shuningdek Selungur texnokompleksida kliverlar atipik shaklda ekanligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati ma’lum shaklga ega emas. To‘plamda asosan “O” shaklli Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolitiga xos kliverlar uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН. Санкт-Петербург. 2000. С. 12-18.*
2. *Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. «Европейский дом». Санкт-Петербург. 1996. 213.*
3. *Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии / Отв. ред. М.В. Шуньков. Изд-во ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 2017. 884 с.*
4. *Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. Ташкент. 1984. С. 18-27.*
5. *Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Советская археология. №2. Под ред. С. А. Плетнева. Москва. 1990. С. 115-126.*
6. *Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. С. 143-163.*
7. *Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во “Фан”. Ташкент. 1995. 220 с.*
8. *Касымов М. Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент. 1966. С. 28-35.*
9. *Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В., Романенко М.Е. Исследования среднепалеолитических комплексов пещеры Сельунгур в полевом сезоне 2016 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 22. Новосибирск. 2016. С. 94-99.*
10. *Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В. Исследования палеолитических комплексов пещеры Сельунгур в 2017 году // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 23. Новосибирск. 2017. С. 141-145.*
11. *Омонов А.М. Ўзбекистон палеолити хорижлик мутахассислар нигоҳида (мунозара ва танқидий қарашлар) // Ўзбекистон Археологияси. №2 (19). Самарқанд. 2019. Б. 112-121.*
12. *Омонов А.М. Марказий Осиёнинг илк палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) // Ўтмишга назар. №9, 4-жилд. Тошкент. 2021. Б. 72-85.*
13. *Omonov A.M. Selungur gor makonining tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2023. 137 b.*
14. *Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // Вопросы антропологии. Вып. 2. Москва. 1960. С. 38.*
15. *Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. ФАН. Ташкент. 1994. С. 44-53.*
16. *Сайфуллаев Б., Омонов А. Селунгур ғор маконида тошларни сандонга уриб синдириш техникасига доир // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг 80 йиллик юбилейига бағишланган “Ўзбекистон археологияси: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги республика илмий конференцияси тезислари.“Фан” нашриёти. Тошкент. 2023. Б. 4-7.*

REFERENCES:

1. *Anisyutkin N.K., Islamov U.I., Krakhmal K.A. 2000. In Arheologicheskie vesti (Archaeological News) 7, 12–19 (in Russian).*
2. *Vishnyatskiy L.B. 1996. Paleolit Sredney Azii i Kazakhstana (The Paleolithic of Central Asia and Kazakhstan). St. Petersburg: “Evropeyskiy dom” Publ. (in Russian).*
3. *Derevyanko A.P. 2017. Tri global’nye migratsii cheloveka v Evrazii (Three Global Human Migrations in Eurasia). Vol. 2. Pervonachal’noe zaselenie chelovekom Severnoy, Tsentral’noy i Sredney Azii (The Initial Human Settlement of Northern, Central and Middle Asia) / Shunkov, M.V. (ed.). Novosibirsk: IAET SB RAS Publ. (in Russian).*
4. *Islamov U.I., Omanzhulov T. 1984. In Istoriya material’noy kul’tury Uzbekistana (History of the Material Culture of Uzbekistan) 19, 18–27 (in Russian).*
5. *Islamov U.I. 1990. In Sovetskaya arheologiya (Soviet Archaeology) 2, 115–126 (in Russian).*
6. *Islamov U.I., Krakhmal K.A. 1992. In: Rannepaleoliticheskie kompleksy Evrazii (Early Paleolithic Complexes of Eurasia). Novosibirsk, 143–163 (in Russian).*
7. *Islamov U.I., Krakhmal K.A. 1995. Paleoekologiya i sledy drevneyshego cheloveka v Tsentral’noy Azii (Paleoecology and Traces of the Earliest Humans in Central Asia). Tashkent: “Fan” Publ. (in Russian).*
8. *Kasymov M.R. 1966. In Istoriya material’noy kul’tury Uzbekistana (History of the Material Culture of Uzbekistan) 7, 28–35 (in Russian).*
9. *Krivoshapkin A.I., Viola B., Chargynov T., Krajcarz M., Kolobova K.A., Shnaider S.V., Romanenko M.E. 2016. In Problemy arheologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredel’nykh territoriy (Problems of Archaeology, Ethnography and Anthropology of Siberia and Neighboring Territories) 22, 94–99 (in Russian).*
10. *Krivoshapkin A.I., Viola B., Chargynov T., Krajcarz M., Kolobova K.A., Shnaider S.V. 2017. In Problemy arheologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredel’nykh territoriy (Problems of Archaeology, Ethnography and Anthropology of Siberia and Neighboring Territories) 23, 141–145 (in Russian).*
11. *Omonov A.M. 2019. In O‘zbekiston arxeologiyasi (Archaeology of Uzbekistan) 2 (19), 112–121 (in Uzbek).*
12. *Omonov A.M. 2021. In O‘tmishga nazar (Looking into the Past) 4 (9), 72–85 (in Uzbek).*
13. *Omonov A.M. 2023. Selungur g‘or makonining tosh industriyasi: texnik-tipologik tadqiqot (The Stone Industry of the Selungur Cave Site: A Technical and Typological Study). PhD Dissertation in History. Tashkent (in Uzbek).*
14. *Poshka A. 1960. In Voprosy antropologii (Questions of Anthropology) 2, 21–38 (in Russian).*
15. *Ranov V.A., Dodonov, A.E. 1996. In: K istokam istorii drevnekamennogo veka Sredney Azii (Towards the Origins of the History of the Old Stone Age of Central Asia). Tashkent: “Fan” Publ., 44–53 (in Russian).*
16. *Sayfullayev B., Omonov, A. 2023. In: O‘zbekiston arxeologiyasi: muammolar va yechimlar (Archaeology of Uzbekistan: Problems and Solutions). Proceedings of the Republican Scientific Conference Dedicated to the 80th Anniversary of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: “Fan” Publ., 4–7 (in Uzbek).*

MACRO TOOLS FROM THE SELUNGUR CAVE SITE

© 2026. Omonov Anvar
University of science and Technologies

Key words: East and Southeast Asia, lower paleolithic, homo erectus, acheulean, stone industry, lithic reduction, retouching, flake, core, biface, cleaver, chopper, chopping tools.

This article examines the technical and typological characteristics and analysis of macro-tools from the lower paleolithic cave site of Selungur in Central Asia. The site was discovered in 1955 by A.P. Okladnikov and later partially studied by A. Poshka and M.R. Kasymov. Active discussions about the cultural and chronological affiliation of Selungur began in the 1980s after large-scale research by the Institute of Archaeology of the Academy of Sciences of Uzbekistan under the leadership of U.I. Islamov. Despite the discovery of a large assemblage of stone artefacts (about 1,500 items), as well as paleoanthropological and paleontological finds, the scientific interpretation of the industry remained controversial. While V.A. Ranov, L.B. Vishnyatsky, and A.P. Derevyanko denied the presence of hand axes (bifaces) within the assaemblage, N.K. Anisutkin and U.I. Islamov justified their presence as key elements of the collection. In 2022–2023, the stone tools of Selungur were subjected to a comprehensive analysis using modern morphological, archaeometric, technical-typological, and experimental methods. As a result of the study, an typological classification (type list) was developed, confirming the genetic proximity and similarity of the Selungur industry to the cultures of the lower paleolithic of East and Southeast Asia.